

UMUMIY O‘RTA VA MAKTABDAN TASHQARI TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MATEMATIKA FANIDAN MALAKA SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

Mazkur spetsifikatsiya Matematika fanidan umumiy o‘rta ta’lim tashkilotlari o‘qituvchilarini attestatsiyadan o‘tkazish malaka sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli hamda baholash mezonini talablarini aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning matematika fani bo‘yicha nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikma va kompetensiyalarini kompleks baholash.

Ushbu baholash natijalari asosida pedagog kadrlar attestatsiyasida qabul qilinadigan qarorlar asosli bo‘lishini ta’minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta’minlanadi.

II. Me’yoriy asoslar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 26-maydagi PF-79-son farmoni.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-son qarori.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 29-dekabrda Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 17-sentyabrdagi 572-son qaroriga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 692-son qarori.

III. Baholash qamrovi

Matematika fani o‘qituvchilari uchun mutaxassislik fanidan jami 35 ta, kasb standartlaridan 5 ta, pedagogik mahoratdan 10 ta, jami 50 ta test topshirig‘i taqdim etiladi va umumiy test topshirig‘ini bajarish uchun 120 daqiqa vaqt berilgan. Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari*

(Y1), moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari (Y2) va ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari (Y3) foydalaniladi.

Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko'nikmalari bo'yicha taqsimoti

1-jadval

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Testlar soni
1. ALGEBRA		21 ta
1.1. Sonlar va amallar (1–3-savollar)		
Amallar va hisoblashlar	– Natural, butun va ratsional sonlar ustida qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini bajarish, amallar tartibiga rioya qilish, sonlarning ishoralarini to'g'ri qo'llash hamda olingan natijani tekshirish; – kasrlar va aralash sonlar ustida amallarni bajarish; – darajalar va ildizlar bilan bog'liq ifodalarni soddalashtira oladi, daraja qoidalarini qo'llash; – Sonlarning bo'linish xossalari, EKUB va EKUK bilan bog'liq masalalarni bajarish.	3 ta
1.2. Algebra va funksiyalar (4–14-savollar)		
Algebraik ifodalar va almashtirishlar	–Algebraik ifodalarni soddalashtirish, ko'paytuvchilarga ajratish; – Bezu teoremasini qo'llab, ko'phadlarni bo'lishga oid masalalarni yechish hamda qoldiqni aniqlash; – matnli masalani (foizga, harakatga, aralashmaga oid) tahlil qilib, unga mos matematik modelni (tenglama, tengsizlik, tenglamalar va tengsizliklar sistemasi yoki funksiya) tuza olish hamda modeldan foydalanib masalani yechish.	5 ta
O'zgaruvchilar va funksiyalar	– Arifmetik, geometrik va cheksiz kamayuvchi geometrik progressiya bilan bog'liq masalalarni yechish; – funksiyaning xossalari aniqlash, funksiya grafigini tahlil qilish, grafikni o'qish hamda grafikni siljitish, cho'zish, siqish va akslantirish kabi almashtirishlarni bajarish.	1 ta
Tenglama va tengsizliklar	– Tenglama va tengsizliklarni yechish (chiziqli, kvadrat, trigonometrik, logarifmik, ko'rsatkichli, ratsional va irratsional); – tenglama va tengsizliklar sistemasini yechish	5 ta

	(chiziqli, ikkinchi darajali, irratsional); – parametr va modul qatnashgan tenglamalarni yechish, parametr qiymatlariga bog‘liq holda yechimlar sonini aniqlash va yechimlarning mavjudlik shartlarini tahlil qilish.	
1.3. Statistika va ehtimollik (15–17-savollar)		
Kombinatorika masalalari. Nyuton binomi. Ehtimollar nazariyasi. Matematik statistika va ma'lumotlar bilan ishlash.	– To‘plamlar va kombinatorika asoslari, ehtimollar nazariyasi asoslariga doir masalalarni yechish; – Nyuton binomi formulasi va binomial koeffitsiyentlardan foydalanib, yoyilmaning umumiy hadini aniqlash; – tasodifiy hodisalar ustida qo‘shish va ko‘paytirish amallarini qo‘llash, bog‘liq va bog‘liq bo‘lmagan hodisalarning ehtimolliklarini aniqlash, shartli ehtimollikni hisoblash, to‘la ehtimollik, Bernulli va Bayes formulalaridan foydalanib masalalarni yechish, olingan natijalarning mantiqiylikni tahlil qilish va tekshirish; – statistik jadvallar, diagrammalar va grafiklarni o‘qish hamda talqin qilish, arifmetik o‘rta, mediana, moda va tarqoqlik ko‘rsatkichlarini aniqlashga oid masalalarni yechish.	3 ta
1.4. Matematik analiz asoslari (18–21-savollar)		
Hosila va uning tatbiqlari, aniq integral va uning tatbiqlari	– Funksiyaning limitini topa olish va uzluksizlikni tahlil qilish; – hosila olish qoidalarini qo‘llash, funksiyaning hosilasini hisoblash, hosila yordamida funksiyaning o‘shish va kamayish oraliqlarini, kritik nuqtalari va ekstremumlarini aniqlash hamda funksiya grafigini tahlil qilish; – funksiyaning boshlang‘ich funksiyasini topish, aniq va aniqmas integralni hisoblash, integrallashning asosiy formulalari va qoidalarini qo‘llash, Nyuton–Leybnits formulasidan foydalanish hamda olingan natijalarni tahlil qilish va tekshirish; – hosila va integral tushunchalarini hayotiy vaziyatlarga tatbiq qilish, matematik model tuzish, hosila va integral usullaridan foydalanib masalalarni yechish hamda olingan natijalarni tahlil qilish va izohlash.	4 ta
2. Geometriya		14 ta
2.1. Geometriya va o‘lchashlar (22–35-savollar)		

Planimetriya	–Geometrik teorema, aksioma va formulalarni bilish; –Vertikal, qo‘shni, ichki va tashqi burchaklarni hamda parallel chiziqlarni kesuvchi to‘g‘ri chiziq hosil qilgan burchaklarni aniqlash, ularning xossalarini qo‘llash va burchak o‘lchovlarini hisoblash; –Aylana va doiraning asosiy elementlarini aniqlash, radius, diametr, vatar, yoy, sektor, markaziy va ichki chizilgan burchaklarning xossalarini qo‘llash, aylana uzunligi va doira yuzini hisoblash hamda ularga doir masalalarni yechish; –Parallelogramm va rombning xossalarini qo‘llab, perimetri, yuzi va noma’lum elementlarini topish; –Trapetsiyaning xossalaridan foydalanib, perimetri, yuzi va noma’lum elementlarini topish; –To‘g‘ri burchakli uchburchak xossalaridan foydalanib, noma’lum elementlarini topish; –Uchburchak xossalaridan foydalanib, yuzi va noma’lum elementlarini topish; –Sinuslar va kosinuslar teoremasini qo‘llab, uchburchakdagi noma’lum tomon yoki burchaklarni topish; –Muntazam ko‘pburchakka ichki va tashqi chizilgan aylananing radiusi, markazi va tomonlar orasidagi munosabatlarni tahlil qilish, ko‘pburchakning perimetri, yuzi yoki radiusini topish.	8 ta
Stereometriya	–Tekislik va fazodagi vektorlarni tahlil qilish; vektor ustida amallar (qo‘shish, ayirish, skalyar ko‘paytma)ni bajarish, vektorlarning uzunligi, yo‘nalishi, perpendikulyarlik va parallellik shartlarini qo‘llab masalalarni yechish; –shar va sferaning xossalaridan foydalanish, ularning kesimlari va urinma tekisligiga oid masalalarni yechish, sirt yuzi va hajmini hisoblash hamda geometrik bog‘lanishlarni tahlil qilish; –prizmaning asosiy elementlari va xossalarini qo‘llash, prizmaning hajmi, yon sirti va to‘la sirti yuzini hisoblash, berilgan nuqtalar orqali o‘tuvchi kesim tekisligini aniqlash hamda hosil bo‘lgan kesimning perimetri va yuzini hisoblash; –silindrning xossalaridan foydalanib, uning elementlarini aniqlash, uning hajmi va sirti yuzini topishga oid masalalarni yechish; –konus va kesik konusning xossalaridan foydalanish, o‘q kesimini tahlil qilish, asos radiuslari, balandligi va yasovchisini aniqlash hamda ularning yon sirti, to‘la	6 ta

	sirt yuzi va hajmini hisoblash; –piramidaning asosiy elementlari va xossalari qo‘llash, piramidaning hajmi, yon sirti va to‘la sirt yuzini hisoblash, berilgan nuqtalar orqali o‘tuvchi kesim tekisligini aniqlash hamda hosil bo‘lgan kesimning yuzini hisoblash, to‘g‘ri chiziq bilan tekislik va tekisliklar orasidagi burchaklarni aniqlash hamda ularga doir masalalarni yechish; – fazoviy jismlar kombinatsiyalariga oid masalalarni yecha olish, jismlarning o‘zaro joylashuvi va geometrik elementlari orasidagi bog‘lanishlarni aniqlay olish, kesimlarni tahlil qila olish, sirt yuzlari va hajmlarini hisoblay olish hamda olingan natijalarning to‘g‘riligini asoslash.	
Jami		35 ta

Kasb standartlari va pedagogik mahoratdan tuziladigan test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

2-jadval

1. KASB STANDARTI (36 – 40-savollar)		5 ta
1.1. Kasbiy standartlar	– pedagogning kasbiy standartlari (o‘quv jarayonini rejalashtirish, ta’lim samaradorligini ta’minlash, o‘zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish, xavfsiz rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish va ta’minlash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va kasbiy o‘sish, hamkasblar va ta’lim oluvchilarning ota-onalari bilan hamkorlik qilish)ni bilish va pedagogik vaziyatlarda qo‘llay olish	5 ta
1. PEDAGOGIK MAHORAT (41– 50-savollar)		10 ta
2.1. Umumiy pedagogika	– pedagogika, didaktika, tarbiya va yosh psixologiyasining asosiy tushunchalari va kategoriyalari, pedagogik yondashuvlar va ta’lim paradigmalarini bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish; – pedagogikaning tamoyillari (onglililik va faollik, ko‘rgazmalilik, tizimlilik va muntazamlilik, ilmiylik,	7 ta

nazariya va amaliyot birligi va boshqalar)ni bilish va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish;

– tarbiya va uning turlarini bilish, bir-biridan farqlash va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish;

– dars va uning turlari (yangi bilim berish darsi, mustahkamlash darsi, takrorlash va umumlashtirish darsi, nazorat (tekshirish) darsi, aralash dars; ma’ruza darsi, suhbat darsi, amaliy dars, laboratoriya darsi, mustaqil ish darsi; an’anaviy dars, noan’anaviy dars va boshqalar)ni bilish, darsni rejalashtirish, tashkil etish va sinfni boshqarish yondashuvlarini konkret vaziyatlarda qo’llay olish, ta’lim jarayonini loyihalashtirish va boshqarish, muammoli vaziyatda to’g’ri qaror qabul qilish;

– sinf rahbarining huquq va majburiyatlarini bilish, sinf hujjatlari bilan ishlay olish, ularni yuritishda to’g’ri ketma-ketlikka amal qilish, sinf jamoasini to’g’ri shakllantirish, muloqotda pedagogik etika qoidalariga amal qilish, ota-onalar bilan hamkorlikning samarali shakllarini tanlash, muammoli vaziyatda eng maqbul strategik yondashuvni qo’llash;

– pedagogik etika, nutq, texnika, ijodkorlik, pedagogik odob, bilimdonlik/kompetentlik, muloqot madaniyati, takt/nazokat, kreativlik, refleksiya va kasbiy o’sish asoslarini bilishi va berilgan vaziyatga mosini tanlay olish;

– pedagogik qobiliyat va uning turlari (didaktik qobiliyat, akademik qobiliyat, perspektiv-pedagogik qobiliyat, nutq madaniyati, baholash madaniyati, texnologik madaniyat, tashkilotchilik qobiliyati, kommunikativ qobiliyat, avtoritar qobiliyat va boshqalar)ni bilish va konkret vaziyatlarda qo’llay olish,

– ta’lim texnologiyalari (loyihaga asoslangan ta’lim, muammoli ta’lim, hamkorlikdagi ta’lim, evristik ta’lim, shaxsga yo’naltirilgan ta’lim, interfaol ta’lim, differensial ta’lim, integral ta’lim, o’yinli ta’lim, inklyuziv ta’lim va boshqalar)ni bilish va vaziyatlarga mosini tanlay olish;

– ta’limda baholashning asosiy tushunchalari (baholash maqsadi, tamoyillari, yondashuvlari, baholash turlari (formativ, diagnostik, summativ baholash), metod va texnologiyalari, vositalari)ni bilish, berilgan vaziyatga mosini tanlash va baholash

	bo'yicha qabul qilingan qarorlarning berilgan vaziyatda mosligiga baho berish; – raqamli savodxonlik, sun'iy intellekt, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar (emaktab.uz va boshqalar) va resurslaridan (Microsoft Office dasturlari, internet tarmog'idan) foydalanishni bilishi.	
2.2. Matematika fanini o'qitish metodikasi	– fan mazmun sohasini o'qitish yondashuvlari, metodikasi, o'qitish usullari va metodlarini bilish va farqlash, berilgan vaziyatga mosini tanlash, hamda o'qitish bo'yicha berilgan ta'limiy vaziyatga oid qabul qilingan qarorlarga baho berish.	3 ta
Jami		15 ta

Test topshiriqlarining kognitiv ko'nikmalar bo'yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

Kognitiv ko'nikmalar taqsimoti

3-jadval

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Test soni
1.	Bilish	matematik tushunchalar, ta'riflar, formulalar, teoremlar, qoidalar va algoritmlar haqidagi bilimlarni esga tushirish hamda ularni oddiy vaziyatlarda to'g'ri ifodalay olish.	8 ta
2.	Qo'llash	matematik tushunchalar, formulalar, teoremlar, qoidalar va algoritmlarni tanish vaziyatlarda qo'llab misol va masalalarni yechish hamda olingan natijalarni izohlay olish.	35 ta
3.	Mulohaza qilish	notanish vaziyatlarda muammoning matematik mohiyatini aniqlash, matematik modellashtirishni amalga oshirish, yechim strategiyasini tanlash, matematik dalillarga tayangan holda yechimni asoslash va isbotlash, natijalarning to'g'riligini baholash hamda xulosa(lar) chiqara olish.	7 ta

IV. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiruvchining umumiy ballini (raw score) hisoblash uchun har bir to'g'ri javobga 2 ball, noto'g'ri javobga 0 ball beriladi. Umumiy 100 ballni tashkil etadi.

V. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VI. Foydalanishga tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

1. Xaydarov B. Matematika. 5-sinf uchun darslik. 1-qism. – Toshkent: “Huquq va jamiyat” nashriyoti, 2020. –144 b.
2. Xaydarov B. Matematika. 5-sinf uchun darslik. 2-qism. – Toshkent: “Huquq va jamiyat” nashriyoti, 2020. –144 b.
3. Erik Chan Chun Ming. AHA! MATEMATIKA 5-sinf uchun darslik. I qism – Toshkent: “Novda edutainment” nashriyoti, 2024. – 180 b.
4. Erik Chan Chun Ming. AHA! MATEMATIKA 5-sinf uchun darslik.II qism – Toshkent: “Novda edutainment” nashriyoti, 2024. – 164 b.
5. Mirzaahmedov M. va boshq. Matematika: Ixtisoslashtirilgan maktablarning 5-sinfi uchun darslik. I–IV qismlar. – Toshkent: “Yashil yaproq” nashriyoti, 2024.
6. Mirzaahmedov M. va boshq. Matematika 6-sinf uchun darslik, “O'qituvchi” nashriyoti–matbaa ijodiy uyi 2017. –240 b.
7. Ismailov Sh. va boshq. Matematika 6-sinf uchun darslik. – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 240 b.
8. E.Ch. Chun Ming. AHA! MATEMATIKA 6-sinf uchun darslik.I qism – Toshkent: “Novda edutainment” nashriyoti, 2024. – 176 b.
9. E.Ch. Chun Ming. AHA! MATEMATIKA 6-sinf uchun darslik.II qism – Toshkent: “Novda edutainment” nashriyoti, 2024. – 120 b.
10. Mirzaahmedov M. va boshq. Matematika: Ixtisoslashtirilgan maktablarning 6-sinfi uchun darslik. I–IV qismlar. – Toshkent: “G'afur G'ulom” nashriyoti, 2025.
11. Akmalov A., Saparbayev J. va boshq. Algebra 7-sinf uchun darslik, – Toshkent: Respublika ta'lim markazi, 2022. – 192 b.

12. Mirzaahmedov M. va boshq. Algebra: Ixtisoslashtirilgan maktablarning 7-sinfi uchun darslik. I–II qismlar. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2025.
13. Xaydarov B. va boshq. Geometriya 7-sinf uchun darslik, –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.
14. Sh.Alimov va boshq. Algebra 8-sinf uchun darslik, –Toshkent: “O‘qituvchi” NMJU 2019. –240 b.
15. Mirzaahmedov M. va boshq. Algebra: Ixtisoslashtirilgan maktablarning 8-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “O‘qituvchi” NMIU, 2025. –240 b.
16. Rahimqoriyev va boshq. Geometriya 8-sinf uchun darslik, –Toshkent: “O‘zbekiston” NMJU 2019. –160 b.
17. Sh.Alimov va boshq. Algebra 9-sinf uchun darslik, –Toshkent: “O‘qituvchi” NMJU 2019. –240 b.
18. Mirzaahmedov M. va boshq. Algebra: Ixtisoslashtirilgan maktablarning 9-sinfi uchun darslik. – Toshkent: “G‘afur G‘ulom” nashriyoti, 2012. –240 b.
19. Xaydarov B. va boshq. Geometriya 9-sinf uchun darslik, –Toshkent: “Huquq va jamiyat” nashriyoti 2019-yil. –160 b.
20. Zaitov A. va boshq. Algebra va analiz asoslari 10-sinf uchun darslik, –Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. – 192 b.
21. Xaydarov B. va boshq. Geometriya 10-sinfi uchun darslik, –Toshkent: “Book Media Nashr” nashriyoti 2022. –192 b.
22. Mirzaahmedov M. va boshq. Matematika 11-sinf uchun darslik. I va II qism. –Toshkent: “ZAMIN NASHR” MCHJ, 2018.
23. Abduhamidov A. va boshq. Algebra va matematik analiz asoslari. I va II qism. Akademik litseylar uchun darslik, -Toshkent: “O‘qituvchi” nashriyoti 2014.
24. Israilov I., Pashayev Z. Geometriyadan masalalar to‘plami. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.“O‘qituvchi” nashriyoti 2003
25. Maxmudova D.M., Siddiqova Z.X., Yusupova A.K. Matematika o‘qitish metodikasi Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining matematika fakulteti talablari uchun, “History and page” nashriyoti 2022.
26. S.Alixonov Matematika o‘qitish metodikasi Pedagogika universitetlarining matematika fakulteti talabalari uchun, “Cho‘lpon” nashriyoti 2011.

VII. Pedagogik mahorat va kasb standartlari bo'yicha manbalar

1. Mavlonova R.A., Umumiy pedagogika. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018. – 528 b.
2. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Darslik, – Toshkent: “Bayoz” nashriyoti, 2025. – 504 b.
3. Tolipov O‘., Ro‘ziyeva D. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Innovatsiya-ziyo” nashriyoti, 2019. – 276 b.
4. Abdiraimov Sh. va boshq. Ta’limda baholash va monitoring asoslari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent, TDYU nashriyoti, 2026. – 208 bet.
5. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘qituvchisi kasb standarti.
6. Israilov I., Pashayev Z. Geometriyadan masalalar to‘plami. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. “O‘qituvchi” nashriyoti 2003.
7. Maxmudova D.M., Siddiqova Z. X., Yusupova A. K. Matematika o‘qitish metodikasi. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarining matematika fakulteti talablari uchun, “History and page” nashriyoti 2022.
8. S.Alixonov. Matematika o‘qitish metodikasi. Pedagogika universitetlarining matematika fakulteti talabalari uchun, “Cho‘lpon” nashriyoti 2011.

Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Sinovga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.